

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Masofaviy bank xizmatlari

Tezkor SMS-xabarlash – bu axborot xizmatlari kompleksi bo‘lib, ular AT "Aloqabank" plastik kartalari egalarining uyali telefonlariga SMS-xabarlar yuborish orqali taqdim etiladi. Siz har safar bank kartasi orqali pul to‘laganingizda yoki Sizning kara hisobvarag‘ingizga mablag‘lar kelib tushganida bajarilgan operatsiya va karta hisobvarag‘ingiz qoldig‘i haqida SMS-xabar olasiz.

Xizmat barcha uyali aloqa operatorlari abonentlariga taqdim etiladi.

Kecha-kunduz ishlovchi xabarlash tizimi Sizning kartangizdagi mablag‘lardan ruxsatsiz foydalanish xatarini kamaytirish va ular ishlatilishini nazorat qilish imkonini beradi.

SMS-xabarlarda Sizning karta hisobvarag‘ingiz holati haqidagi, plastik kartngizdan hamda yaqinlaringiz uchun ochilgan qo‘shimcha kartalardan foydalanib bajarilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘ladi.

SMS-xabarlash quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkon beradi:

- plastik karta hisobvarag‘ining balansi;
- plastik karta hisobvarag‘idagi mablag‘lar harakati;
- omonatga hisoblangan foizlar;
- hisobvaraqa kiritilgan/undan chiqarilgan mablag‘lar.